

References:

1. Trofimova, L. B. (2023). *Relevant Financial Reporting in the Context of the Development of Integration Processes*. Moscow: INFRA-M.
2. Kulikov, S. V. (2024). *Management of the insurer's solvency*. *Problems of Modern Science and Education*, 9, 57–60.
3. Rubio-Misas, M. (2020). *Ownership structure and financial stability: Evidence from takaful and conventional insurance companies*. *Pacific-Basin Finance Journal*, 62, 101355.
4. Cummins, J. D., & Weiss, M. A. (2014). *Systemic risk and the U.S. insurance sector*. *Journal of Risk and Insurance*, 81(3), 489–528.
5. Skipper, H. D., & Kwon, W. J. (2007). *Risk Management and Insurance: Perspectives in a Global Economy*. Oxford: Blackwell Publishing.
6. International Association of Insurance Supervisors (IAIS). (2022). *Global Insurance Market Report*. Basel: IAIS.
7. OECD. (2025). *Global Insurance Market Trends*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
8. Swiss Re Institute. (2023). *World Insurance: Sigma Report on Global Insurance Markets*. Zurich: Swiss Re.
9. Outreville, J. F. (2013). *The relationship between insurance and economic development: A survey of the literature*. *Risk Management and Insurance Review*, 16(1), 71–122.
10. Arena, M. (2008). *Does insurance market activity promote economic growth?* *Journal of Risk and Insurance*, 75(4), 921–946.

MOLIYA BOZORI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIALASHTIRISHNING ROLI

Nazarov Aziz Avazovich
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Global iqtisodiyotning shiddat bilan rivojlanishi, raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar takomillashuvi sharoitida mamlakat iqtisodiyotining ajralmas muhim tarkibiy qismi sifatida tijorat banklarining ham yanada roli ortib bormoqda. Ma'lumki, tijorat banklari mamlakatning umumiy barqarorligida sezilarli hissa qo'shuvchi moliyaviy institutlardan biridir. Shu boisdan, hozirgi kundagi bank sohasida kuzatilayotgan innovatsion o'zgarishlar nafaqat banklarning barqaror va samarali faoliyat yuritishiga, balki butun davlat iqtisodiyoti miqyosida ham rivojlanish tendensiyalariga sabab bo'lmoqda.

Ta'kidlash joiz, O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan bank-moliya sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida investitsiya loyihalarni molialashtirish jarayonlarini takomillashtirish vazifalari belgilangan. Bu borada, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, (O'RQ-598-son bilan 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, "2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-6079-sonli farmoni" hamda "2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori huquqiy normativ baza sifatida muhim ahamiyatga ega.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish natijasi banklar samaradorligi uchun muhim ahamiyat kasb etar ekan, bu jarayonlarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rgangan tadqiqotlarga nazar tashlaymiz. Jumladan, Kleimeier va Versteeg[1] kabi olimlarning fikricha loyihalarni moliyalashtirish past daromadli mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular tomonidan 1991-2005 yillar oralig'idagi 90 ta davlatning 3 ta 5 yillik panel ma'lumotlari emperik tahlil qilingan bo'lib, agar past daromadli mamlakat loyihalarni moliyalashtirish hajmini 25-foizdan 75-foizga oshirsa, yillik iqtisodiy o'sish darajasi 0.67 foiz punktiga ko'tariladi degan xulosaga kelishgan.

Bundan ko'rinadiki, o'rta va yuqori daromadli mamlakatlarda bu ta'sir juda yuqori statistik ahamiyatga ega emas va rivojlanayotgan mamlakatlar miqyosida ham uning ahamiyati borligi bo'yicha xulosa qilinishi mumkin. Darhaqiqat, loyihalarni moliyalashtirish orqali tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish mumkin bo'ladi. Bunday xarajatlar sifatida investitsiyalar va kapital taqsimoti to'g'risida ma'lumotlar yetarli bo'lmaganda qilinadigan xarajatlar, xavflarni boshqarish hamda jamg'armalarni jalb qilish imkoniyati bo'lmasligidan kelib chiqadigan xarajatlarni aytish mumkin. Shuning uchun ham iqtisodiy barqaror bo'lmagan mamlakatlarda loyihalarni moliyalashtirishning ta'siri ayniqsa yuqori bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ba'zi olimlar tomonidan loyihalarni moliyalashtirishni "huquqiy jihatdan mustaqil bo'lgan korxonaga bir yoki bir nechta homiy korxonalar va tashkilotlar hisobidan sarmoya kiritish maqsadida moliyalashtiriladigan jarayonlar" deb ta'rif berilgan.[2]

Ma'lumki ko'pchilik investorlar uchun investitsion loyihalarni moliyalashtirishda bir qator variantlar ichidan tanlash, ya'ni uning investitsion jozibadorligini baholashda asosan ikki jihatiga tayanadi, loyihani moliyalashtirishdan qanday xavf xatarlar mavjudligi va ma'lum bir vaqt oralig'ida ushbu loyihadan qancha foyda olinishi mumkinligi. Odatda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda qarorlar qabul qilinishi loyihaga kiritiladigan investitsiyaning rentabelligi darajasi va uning amalga oshirilish jarayonidagi risklardan kelib chiqadi. Muommoli holatlar yuz berish ehtimolini tahlil qilish va ushbu risklarni minimallashtirish deyarli barcha investitsion qarorlarni qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Iyer va boshqa olimlar[3] tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash orqali moliyalashtirish jarayonlari va undagi risklar o'rganilgan bo'lib, maqolada moliyalashtirishda kredit risklarini baholash va kredit reytinglarining moliyaviy risklarni aniqlashdagi o'rni va ularning dolzarbligi yoritilgan. Tahlillarga ko'ra 2030-yilgacha global infratuzilmaga 57 trillion dollar sarmoya talab etiladi, ammo bunda davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar yetarli bo'lmasligi mumkin va shuning uchun xususiy sektor ishtirokini ta'minlash zarur degan xulosaga kelingan.

Shu jihatdan, tijorat banklari tomonidan loyihalarni moliyalashtirishda asosiy vazifalardan biri bu – loyiha risklarini baholashdir. Loyiha xavfini baholash uchun esa loyihaning investitsion jozibadorligini baholash bo'yicha metodologik tavsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish zarur. Demak, respublikamizda investitsiya loyihalarni moliyalashtirish jarayonlarini takomillashtirishda puxta va chuqur o'rganilgan holda metodologiya ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Jahon amaliyotidan ko'rinadiki, banklarning investitsion loyihalarni moliyalashtirish to'g'risidagi qarorlari moliyaviy, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy va sanoat omillari kabi ko'plab omillarni hisobga olgan holdagi loyihani baholash bo'yicha keng qamrovli yondashuvni talab etadi. Ushbu omillarning barchasi o'zaro

chambarchas bog'langan bo'lib, loyihaning investitsion jozibadorligiga murakkab ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, yuqoridagilarni umulashtirib banklar tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

a) investitsiya yo'nalishlarini belgilash, investitsiya loyihalarini tanlash, boshqarish, ekspertizadan o'tkazish va moliyalashtirishning sodda hamda tadbirkorlar uchun qulay mexanizmlarini qo'llash;

b) investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qarzdorning/mijozning faqat kredit bo'yicha ta'minoti mavjudligi bilan cheklanib qolmasdan, uning kelajakdagi pul oqimi prognozi va moliyaviy istiqbolini chuqur tahlil qilgan holda qaror qabul qilish;

d) kredit ajratishda kredit evaziga sotib olinayotgan obyekt (bino, inshoot, dastgoh va boshqalar) belgilangan tartibda garovga olish amaliyotini kengaytirish;

e) investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni baholash va boshqarish tizimini takomillashtirish;

f) ajratiladigan kreditlar muddatini jalb etiladigan chet el kredit liniyalari va boshqa depozitlarning qaytarish muddati hamda Bankning likvidlik holatidan kelib chiqib belgilash;

g) kredit portfelini diversifikatsiya qilishni kuchaytirish, tavakkalchiliklarning bir qarzdor, kreditlash obyekti, faoliyat turi va tarmoqda to'planishini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

Bozorda har qanday bank mahsulotini targ'ib qilishda bank uchun maqbul bo'lgan xavf-xatar tahlili tamoyillari va yondashuvlari hamda operatsiyani amalga oshirish shartlari ishlab chiqilishi kerak. Xuddi shu kabi loyihalarni moliyalashtirish tamoyillari asosida bitim tuzilganda, loyiha xatarlarini kamaytirish uchun, korxonaning kredit tarixi, moliyaviy hisobotlari tahlili, garov tahlili hamda korxonaning biznes rejasini asoslanganligini ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilganda, investitsion loyihalarni banklar tomonidan moliyalashtirish iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, kreditlash faoliyatini to'g'ri tashkil etish ko'pincha iqtisodiy o'sish sur'atlarining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. Bu jarayonlar orqali banklar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish, balki yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va natijada mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YAIM) o'sishiga bevosita hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Stefanie Kleimeier; Roald Versteeg. (2010). Project finance as a driver of economic growth in low-income countries.,19(2),0–59.*

2. *Esty, B. C. (2007). An overview of project finance & infrastructure finance — 2006 update. Boston: Harvard Business School Publishing.*

3. *Iyer, K C; Purkayastha, Dhruva. Journal of Structured Finance; London Tom 22, Изд. 4, (Winter 2017): 17-25. DOI:10.3905/jsf.2017.22.4.017*